

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**  
**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**



**70220301 -TARIX (YO'NALISHLAR VA FAOLIYAT TURI BO'YICHA)**  
**MUTAXASSISLIGI BITIRUVCHILARI UCHUN**  
**FANLARARO YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI**  
**D A S T U R I**

**Bilim sohasi:** **200 000 – San'at va gumanitar fanlar**

**Ta'lif sohasi:** **220000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)**

**Ta'lif mutaxassisligii:** **70220301 – Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)**

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-sон buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida NIZOM" (hozirga qadar mazkur Nizomga bir necha bor o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, 2018-yil 7-noyabrdagi 26-sон buyrug'iga binoan so'ngi o'zgarish bo'lgan)ga asosan ishlab chiqildi.

Farg'ona davlat universiteti kengashining 2024-yil 29-fevraldagи 7 son qarori bilan tasdiqlangan.

Tarix fakultetining 2024-yil 9-fevraldagи 6 sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.

O'zbekiston tarixi kafedrasining 2024-yil 2-fevraldagи 5/11 son navbatdan tashqari yig'ilishida muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etilgan.

#### **Tuzuvchilar:**

N.Alimova – O'zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, falsafa doktori, dotsent

B.Usmonov – O'zbekiston tarixi kafedrasi professori v.b., tarix fanlari doktori

T.Egamberdiyeva – O'zbekiston tarixi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

A.Sharafiddinov – O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

9

#### **Taqrizchilar:**

S.Shadmanova – Sharqshunoslik universiteti professori, tarix fanlari doktori

S.Hoshimov – Andijon davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari doktori

## **KIRISH**

Mazkur dastur 70220301 – Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) mutaxassisligi bitiruvchilarining 2 yil mobaynida ixtisoslik fanlarini o‘qib o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan Yakuniy Davlat Attestatsiyasi sinovlari bo‘yicha ishlab chiqilgan.

2023/2024 o‘quv yilida bitiruvchilarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2021-yil 16-iyulda 311-sod (8-ilova) bilan tasdiqlangan o‘quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o‘tkaziladi.

### **YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI o‘tkaziladigan fanlar tarkibi:**

1. O‘zbekistonda yer-suv muammolari (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) (ixtisoslik fanlari) (1.04)
2. Tarixiy rekonstruksiya masalalari (ixtisoslik fanlari) (1.02)
3. Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi (ixtisoslik fanlari) (1.03)
4. O‘rta asrlar manbashunosligi va tarixshunosligi (ixtisoslik fanlari) (2.01)
5. XX asrda Yevrosiyoda siyosiy jarayonlar tarixi va zamonaviy tendensiyalar (ixtisoslik fanlari) (2.02)

**70220301 – TARIX (YO‘NALISHLAR VA FAOLIYAT TURI BO‘YICHA)**

**MUTAXASSISLIGI**

**FANLARIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA SINOVI**

**MAVZULARI, SAVOLLARI, VA ULARNING MAZMUNI**

**O‘ZBEKISTONDA YER-SUV MUUAMMOLARI (QADIMGI**

**DAVRDAN HOZIRGI KUNGACHA) FANI BO‘YICHA:**

**O‘zbekistonda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi**

Qadimgi odamlar yashagan davrda O‘rta Osiyoning tabiiy shart-sharoiti, ularning tarqalgan hududlari hamda manzilgohlari. Tirikchiligi va hayotiy manbalari. Terimchilik qiladigan yerlari va o‘zlashtiruvchilik xo‘jaligi. Tosh qurollar yasash.

Tabiiy olovdan foydalanish. Ijtimoiy ya’ni to‘dadagi munosabatlar. Atrof muhit haqida dastlabki tasavvurlar, muomala, til, e’tiqodiy va g‘oyaviy tushunchalarni yuzaga kelishida inson bilan tabiatning bevosita bog‘liqligi.

Dehqonchilik madaniyatining shakllanishida daryolar va ularning irmoqlarining tutgan o‘rni. Amudaryo va uning deltasi. Tarixiy manbalarda Zarafshon. O‘rta Osiyoda neolit davri ziroatchilik makonlari. Xorazmdagi Suvyorgan kanali va uning atrofidagi manzilgohlar. Urug‘chilik jamoasi – matriarxatning vujudga kelishi bilan O‘rta Osiyoda hamda yer va suvdan foydalanishda yangicha yondashuv, qurolozlik takomili (tosh paykonli sanchqi, nayzali garpun, suyak teshgichlar va h.k.). Ilk ishlab chiqaruvchilik xo‘jaliklar: ovchilik va xonaki chorvachilik, hunarmandchilik va dehqonchilikni yuzaga kelishida ayollarning buyuk kashfiyotchilik hissasi. Eneolit davri motiga dehqonchiligi, sun’iy sug‘orish tarmoqlari, tosh o‘roqlardan foydalanish.

Bronza davrida O‘zbekistonda irrigatsiyaning shakllanishi. Sun’iy sug‘orishning tog‘oldi vohalar va daryolar etaklaridagi erlarni o‘zlashtirishda ahamiyati. Loyqa va qayr dehqonchiligi. Daryo va uning tarmoqlari etaklarida suv toshqinlaridan atrofga tortilgan ilk sug‘orish ariqchalari sug‘orma dehqonchilikning paydo bo‘lishi.

## **Qadimgi davlat birlashlamalarining shakllanishida yer va suv munosabatlari**

Sug‘orma o‘troq dehqonchilikka o‘tish va uning rivojida patriarxal oilalarining asosiy ishlab chiqaruvchi kuch sifatidagi mohiyati. Ilk temir davri makonlari va sun’iy kanallar qurilishining boshlanishi. Jamoa yerlari va suv xo‘jaligini shakllantirish. Qadimgi Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Qadimgi So‘g‘diyona davlatlari aholisining daryolar irmoqlari bo‘ylab joylashuvi. Xorazm atrofida sun’iy sug‘orishning rivojlanishi natijasida Amudaryoning Dovdon tarmog‘i suvlari Chirmonyop, Qal’aliqir, Ko‘zaliqir va hokazolargagina sarf etilishi.

Ayrim o‘troq vohalarda qishloq (kat)larning kengayib yirik maskat (ilk shahar)larga aylanishi. Ziroatchilik va erkin navlari turlarining ortib borishi. Imoratsozlik va qurilish xomashyolari. Dehqonchilik vohalarini ixota va mudofaasi, voha hukmdorlari va ularning qarorgohlari-shahristonlarni yuzaga kelishi. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalik, jumladan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va mol ayirboshlash, savdo-sotiqning shakllanishi. Mahalliy boshqaruv, mirobchilik va ommaviy hashar-begor, yirik sug‘orish tarmoqlarining o‘tkazilishi va suv inshoatlari. Xususiy mulklarni shakllanishi.

Ahmoniylar va Yunon-makedonlar hukmronligi davrida yerga munosabat masalalari. Qang‘, Dovon va Kushon davlatlarida aholining sinfiy tabaqalanishi hamda yer va suv munosabatlari. Davlat, ibodatxona (Vag‘nze), xususiy va jamoa yerlari. Xorazmning antik davrida qazilgan kanallari o‘zanining (Qirqqiz, Qo‘rg‘oshinjal’sa, Bozorjal’sa, Jonbosjal’sa, Anqoqjal’sa, Guldursundan pastroqdagi, Yakka porson, Qarg‘ateshkanqala, Qiziljal’sa, Qavatjal’sa yaqinidagi kanallar) juda sayoz bo‘lishi.

### **Ilk o‘rta asrlarda yer egaligi munosabatlari**

Ilk o‘rta asrlarda dehqonchilik vohalarining kengayishi. Sug‘orish, melioratsiya va ekin etishtirish agrotexnikasi. Yer maydonlarini o‘g‘itlash. Qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning oshishi. Yerga egalik qilish munosabatlari. Suvdan foydalanish. Mulkchilik munosabatlari. “Dehqonlar”,

“kadivarlar”, “kashovarzlar”. V – VI asrlarda O‘rta Osiyo hududida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari, jumladan g‘alla, sholi, g‘o‘za va boshqalar. V asrda barpo etilgan sug‘orish tarmoqlari, xususan Darg‘om, Zog‘ariq, Bo‘zsuv. Adirlarga suv chiqarishda o‘q, gupchak va tishli g‘ildirakka asoslangan murakkab gidrotexnika inshootlari (charxparak, chig‘ir va boshqalar).

VI – VIII asrlarda mahalliy hokimliklarda yer-suv munosabatlari. Nahrifay, Xarkon, Anhor, Kalkovuz kabi yirik sug‘orish inshootlarining qurilishi.

Mulkdor-ozod, shahar hunarmandlari-ozodkor, savdo ahli-g‘uvokorlar va ular tasarrufidagi yer-mulk va suvlar hamda ulardan foydalanish usullari. To‘rt turdag'i yerga egalik qilish shakllari, jumladan yirik mulkdor-dehqon qo‘rg‘onlari va ekin paykallari; masjid va madrasalarga tegishli vaqf yerlari. Hamda, qo‘schi kashovarzlarning xususiy yerlari va jamoa yerlari-korizlar-yerosti sug‘orish inshootlari vositasida o‘zlashtirilgan umumziroatkorlarning ekinzor paykallari.

### **O‘rta asrlarda O‘zbekistonda yer va suv munosabatlari (IX – XIII asrlar)**

O‘rta asrlar Movarounnahr xo‘jaligi, yer egaligi. Turli-tuman suv inshootlarining (to‘g‘on, band, nova, koriz, chiqir, charxparak, suvayirg‘ich, miftoh) qurilishi. Abdulloh Tohiriy tomonidan suv ta’mintonini tartibga solish maqsadidagi qo‘lanma “Kitob al-Kuniy” (“Ariqlar haqida kitob”)ning yaratilishi. Zarafshonning quyi oqimidagi kanallar: Shohrud, Shopurkom, Karmana, Xarqonrud, Govxitfar, Somjan, Poykon, Novqand, Romitan, Varaxsha, Xaromkon Komi Daymun, Arvon, G‘ifar, Zar, Navkanda, Varaxsha, Xoma va boshq. Zar kanalining 12 ta shoxobga bo‘linishi. Zarafshonning o‘rta va yuqori oqimlaridagi sug‘orish inshootlari. Zarafshon daryosidan Samarqand rustoqlaridan sakkiztasining sug‘orilishi. Darg‘om va Poyariq kanallarining kengaytirilishi.

Somoniy Yahyo ibn Asad davrida xalifa Mo‘tasim tomonidan Chochda yangi kanal qazish uchun mablag‘ ajratilishi. X asrda Xonbandi, XII asr boshlarida Qoraxoniylar davrida G‘ishbandi, X – XII asrlarda G‘azna viloyati G‘azniband, Saxanband va Saridehband suv omborlarining qurilishi. Arslonxon hukmronligi

davrida Poykentni sug‘orish uchun ariq qazdirishga samarasiz urinishlar va Buxoro qadimgi sug‘oriladigan yerlarining suvsizlikdan qurib qolishi. Yerga egalik qilish turlari, xususan “mulki sultoniy”, “mulk yerlari”, “mulki xos” “vaqf yerlari”. Qoraxoniylar davrida Qishloq xo‘jaligining ahvoli. Iqto yerlarining kengayishi. Xorazmshoh-Anushteginlar davrida qishloq xo‘jaligi va yer-suv munosabatlari.

### **Chig‘atoy ulusi davrida yer egaligi va qishloq xo‘jaligi**

Mo‘g‘ullar istilosiga oqibatida Movarounnahr va Xorazm dehqonchilik viloyatlarining vayron qilinishi. Samarqandni suv bilan ta’minlovchi yagona suv inshooti – Qo‘rg‘oshin navosi (“Jo‘yi Arziz”), Marvning bosh to‘g‘oni – Sultonband, va boshqa to‘g‘onlarning buzilishi. Gurganj yaqinida Jayhun daryosini to‘sib turgan to‘g‘onning buzilishi natijasida shaharning suv ostida qolishi va Sariqamish botig‘ida yangi ko‘lning hosil bo‘lishi. Ekin maydonlarining qisqarishi, dehqonchilikning tanazzulga uchrashi. Dehqonlardan olinadigan soliqlar. Chig‘atoy ulusi davrida qishloq xo‘jaligi. Mo‘g‘ullarning o‘troqlashuvi. Yer egaligi turlari: mulki devon, mulki inju, mulki vaqf, mulk yerlari. Iqtador va suyurg‘ol egalari. Korandalar, kadivarlar, muzoriylar. XIV asrda Sariqamishda suv sathining ko‘tarilishi natijasida O‘zboyga undan esa Kaspiy dengiziga quyilishi.

### **Amir Temur va temuriylar davrida yer-suv munosabatlari**

Amir Temur va temuriylar tomonidan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Marv, Tus vodiysi hamda Hirot va uning atrofida yirik sug‘orish inshootlarining barpo etilishi. Yangi qishloqlar va bog‘larning barpo qilinishi. Kobul yaqinidagi Jo‘yinav dahasida Bodon anhorining barpo etilishi. 1381-yil Amir Temurning Murg‘ob vodiysini obodonlashtirish haqidagi farmoni va sarkardalarning Dilkusho, Ganjrvon, Ganjxona, Umar Tobon, Shayx Abu Sa‘id, Shayx Ali Bahodir, Davlatshoh Jondor, Gulbog‘on, Hasan Jondor, Bu Alouddin inoq, Sahdak, Purdor, Ali Malik, Oq Bug‘o, Davlatshoh bihisht, Sanjidak, Mangli Xoja, Kebekchi yurtchi, Qutlug‘ xotun kabi kanal va ariqlarni qazilishida boshchilik qilishi. Darg‘om anhoridan chiqarilgan Angor kanalining qayta

tiklanishi. Samarqand atrofidagi Jo‘ybori Bozor, Jo‘ybori Mazdohin, Jo‘ybori Obirahmat, Jo‘ybori Koranda, Jo‘ybori Jadid ariqlari va ulardan 72 qishloq suv bilan ta‘minlanishi. 1401-yilda Kavkazning Boylaqon mavzeida Amir Temur farmoni bilan Araks daryosidan chiqarilgan Barlos kanali. Shohruh Mirzo tomonidan Murg‘ob daryosining bosh to‘g‘oni – Sultonbandning tiklanishi. Mirzo Ulug‘bek hukmronligi yillarida Buxoro vohasidagi Somonjuq dashtiga suv chiqarilishi. Sulton Husayn tashabbusi bilan Marviruddan yangi kanal qazilishi. Alisher Navoiy tomonidan Turuqband suv omborining barpo etilishi. Toshhovuz, darg‘ot, navo, chiqir, charxparrak, qaynama, sharshara, osma ko‘prik, xandaq, tazar, sardoba kabi turli-tuman suv inshootlarining qurilishi.

Yer egaligi turlari (“mulki devoniy”, “mulk”, “mulki vaqf”, “jamoa yerlari”). Suyurg‘ol egaligi va uning huquqlari. Tarxon yorlig‘i va tarxon egalarining nufuzi. Qishloq xo‘jaligidan yig‘iladigan soliqlar. Ekin maydonlariga ishlov beruvchi “muzoriylar”: davlat yerlarida ishlovchi muzoriylar; mulkdorlarning yerlarini ishlovchi muzoriylar; o‘z yeriga ega bo‘lgan dehqonlar; vaqf mulklarida ishlovchi muzoriylar.

### **Xonliklar davrida O‘zbekistonda yer-suv munosabatlarining umumiy holati va dehqonchilik**

XVI asr boshlarida Shayboniyxon tomonidan Samarqandning Cho‘ponota tepaligi yonida “Shayboniyxon suv ayirg‘ich” ko‘prigining qurilishi. Shayboniyxonning yer-suv hamda soliq masalalarini tartibga solish maqsadida Samarqand yaqinida Konigil manzilida qonunshunos olimlarni to‘plab o‘tkazgan maxsus kengashi. Abdullaxon hukmronlik qilgan davrda (1557-1598 yillar) mamlakatda amalga oshirilgan qurilish va irrigatsiya ishlari. 1583-yilda Zarafshon vodiysining shimolida joylashgan Nurota tizma tog‘idan oqib tushadigan Oqchob soyining darasi ichiga Abdullaxonbandi suv ombori, Zarafshon daryosi suvining taqsimotini tartibga solishda Zarafshon daryosi ustiga 1582-yilda qurilgan Puli Karmana, XVI asrning ikkinchi yarmida bino qilingan Puli Mehtar Qosim, Puli Chahorminor, Puli Jondor kabi suv o‘lchagich va taqsimlagich inshootlarning qurilishi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Tuyatortar kanalining chiqarilib, Jizzax vohasi suv ta'minotining yaxshilanishi. Murg'ob vodiysining yuqori qismida Ko'shk soyi to'silib Xovuzixon suv omborining barpo etilishi.

Buxoro xonligida yangi yerlarni o'zlashtirishda Jo'ybor xo'jalarining tutgan o'rni. Xo'ja Kaab kanalining qazilishi va Somonjuq dashti obod etilishi, Afshona qishlog'igacha kanal chiqarilishi, Amudaryodan Chorjo'y atroflariga suv olib kelinishi, Romitan tumani kanalidan shoxob kovlanib, Sevinj qishlog'i etagidagi dasht yerlar obod etilishi, Vaxsh daryosidan suv chiqarish uchun kanal qazilishi. Xonlikdagi yer egaligi shakllari.

XVI asr va XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida tarqoqlikning kuchayishi hamda Xiva xonligi bilan bo'lgan o'zaro urushlar natijasida quyi Zarafshonning irrigatsiya xo'jaligiga putur etishi, sug'orma dehqonchilik yerlarining maydoni qisqarib ketishi.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Buxoroda mang'itlar hukmronligi o'rnatilib, amirlikda sug'orish tizimi yaxshilash bo'yicha bir qator tadbirlarining o'tkazilishi. Zarafshon vodiysida Jo'yi Xurmo va Jo'yi Sarazm kanallarining qurilishi, Darg'om arig'i to'g'onining qayta tiklanishi, Panjikent yaqinida, Sheroz va Urgut tumanlaridagi ariqlar, Samarqand yaqinidagi Oqdaryo va Qoradaryodan chiqarilgan ariqlarning qayta qazilishi. Amir Shohmurod davrida Urgut tumanida Qozonariq, Sheroz tumanida Toymanariq, Sugut tumanida To'g'uzariq kabi kanallarning chiqarilishi.

Zarafshon oqimida sodir bo'ladigan o'zgarishlar: ko'p suvli davr "vaqt furob", o'rtacha suvli - "vaqt miyonob" va kam suvli - "vaqt qillat" hamda, daryo toshqinlari: "narzob" yoki "Baxovuddinning suvi", "loyob", "garmob" va "xunukob" davri jadvali ishlab chiqilishi va uning ahamiyati. Samarqand va Buxoro o'rtasidagi suv taqsimoti vaqtida "obparta" yoki "nimjo'y" usullarining qo'llanilishi.

Xiva xonligi. XVI asrning o'rtalaridan Ko'hna Urganch, Vazir, Adoq tumanlarining suv qurib qolganligi sababli sahroga aylanishi. Janubiy Xorazm hududi XVII asrning birinchi yarmidai boshlab, o'zbek va turkmanlar o'rtasida

yer, binobarin, suv uchun kurash maydoniga aylanishi. Abulg‘ozzi davrida xonlik iqtisodiy va siyosiy jihatdan yuksalishi. Anushaxon hukmronlik qilgan davrda (1663-1686 yillar) Janubiy Xorazmda ikkita katta Shohobod va Yormish kanallarining qurilishi.

Katta amaldor Odina Muhammad otaliq tomonidan Otaliq arna (hozirgi Mang‘it arna) kanalining qurilishi. Xo‘jayli va Kuyg‘un yerlarining Suvonli va Arabmuhammad kanallari orqali sug‘orilishi.

Muhammad Rahimxon davrida 1815-yil Qilich Niyozboy kanalining qurilishi. Qilich Niyozboy kanalidan chap tomonga Beshuyli, o‘ng tomonga esa, Gurlan, Nukus, Uyg‘ur, Polvonbek kanallarining ajralib chiqishi. 1828-yilda Polvonyopning yangi boshi Toshsaqoning qurilishi va 1831-yilda Ko‘hna Urganch tumaniga kanal o‘tqazilishi. Qorako‘z va Qilich Niyozboy kanallarining Muhammad Rahimxonning ikki lashkarboshisi – Qilich Niyozboy va Davlat Qorako‘z tomonidan qurilishi.

XIX asrning ikkinchi o‘n yilligida Amudaryo suvlarining Lovzonga qarab o‘pirilib ketishi natijasida Shomurod, Sipohiy va Qoraqalpoqyorgan kabi kanallar o‘tkazilishi hamda bu yerlarning Xonobod nomini olishi.

Xiva xonligida Olloqulixon davrida Pahlavon ota nahri, Toshsaqo ariqlarining qayta qazilishi. Xonobod yoki Xonyop kanalining barpo etilishi va Ko‘hna Urganchning obod qilinishi. 1841-yil Quvonishyormaning qazilishi. Amudaryo va uning Lavdan, Ko‘ko‘zak, Qoraboyli, Chumanay, Qiyot-jangar, Ko‘kdaryo, Toldiqdaryo, Qozoqdaryo, Marv, Tajan kabi irmoqlari, Pitnak, Polvonota, O‘azovat, Shohobod, O‘rmish, Qilich-Niyozboy, Arpa, Suvali, Xon nomli kanallari, shuningdek Oybug‘ur, Dovqora, Auzil, Oyoqko‘l, Porsu, Sulton Sanjar - moziy ko‘llariga va ularning xonlik qishloq xo‘jaligida tutgan o‘rni. Ogahiyning “Riyoz ud davla” asaridagi Amudaryo (nomini Jayhun, daryoyi Omu deb ham beradi), Arok, Gandir, Gurgon, Darozob, Ko‘ko‘zak, Marv, Ohal, Subnor, Sunabadr, Tajan, Mavjizan, Tirsak, Qorasuv daryolari, Shohobod, Ko‘hna Urganch, Pahlovon ota, Qilich Niyozbey, Toshsoqqa kanallari (arnalari), Biniyi tok, Darangar, Navxandon, Sarqinli nomli jilg‘alar, Bomi otlig‘ mavzening suvi,

Otqirg'on suvi, Dasht orasida bir ulug' G'adir (ko'l) va Lavdan ko'llari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar.

Sug'orma dehqonchilikning (ekin o'sayotgan davrda) Amudaryoning 4 toshqiniga asoslanishi: 1) Ko'k qamish; 2) Oq baliq; 3) Yulduz (yulduzlar turkumi) va 4) Qirqchilg'ov.

Suvning taqsimlanishi: saqo – arna – yop – badoq – solma – tortma. Doldarg'a, toqurtqa va uning ahamiyati. Suv chiqarish qurilmalari: "sepma", "depma", "nova", chig'ir. To'g'onlar va ularning tuzilishi. Xiva xonligidaga yerga egalik qilish shakllari.

Qo'qon xonligida Umarxon tomonidan XIX asrning birinchi yarmida Yangiariq kanali, Madalixon tomonidan Xonariq, Xudoyorxon tomonidan XIX asrning 60-yillari Ulug'naxr kanallarining barpo etilishi.

Xonliklardagi yer egaligi turlari: davlat yerlari mulki sultoniy, masjid, madrasa va xanoqohlarga tegishli vaqf yerlari hamda xususiy mulklar. Barcha turdag'i yerlarda mehnatkash ziroatkor qo'shchilar hissadorlik asosida dehqonchilik qilishi. Davlat tasarrufidagi yerlarning bir qismi daromatidan foydalanish uchun shahzodalarga , yirik diniy ulamolarga tanho shaklida in'om etilishi. Bunday mulklar soliqdan ozod qilinib, "Mulki xurri xolis" deb yuritilishi.

### **O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan zabit etilishi va yer-suv munosabatlarining mustamlakachilikka moslashtirilishi**

Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatdan ko'zlagan bosh maqsadi va asosiy yo'nalishlari ("paxta", "sug'orish", "ruslarni ko'chirib keltirish"). Yer-suv munosabatlarininig mustamlakachilikka moslashtirilishi.

Turkiston general-gubernatorligi tomonidan Buxoroni "itoatda tutib turishning garovi" sifatida Zarafshon daryosi suv taqsimotiga aralashuvi. XIX asrning 70-yillarida rus irrigatorlari tomonidan voha suv xo'jaligining umumiyligi holati, Zarafshon daryosining suv balansi, vohadagi ekin yerlarining maydoni, ziroatlar navi va ularning suvgaga bo'lgan ehtiyojlari o'rganilishi, shu asosda Samarqand va Buxoro o'rtasida Zarafshon daryosi oqimining "barobar taqsimlash".

XIX asrning 80-90-yillaridan boshlab Samarqand vohasida sug‘orma dehqonchilik, ayniqsa sholikorlikning kengayishi hamda Buxoro vohasida suv tanqisligi kuchayishi. 1895, 1902-yillarda Samarqand va Buxoro o‘rtasida o‘zaro suv taqsimotini “tartibga soluvchi” doimiy komissiyasi tuzilishi. Mazkur komissiyaning 1902-yil 12-mart qaroriga muvofiq, Zarafshon daryosida suvning oz yoki ko‘p bo‘lishidan qat’iy nazar uning 67 foizi Samarqand vohasiga qolgan 33 foizi Buxoroga taqsimlanishi.

Vaqf yerlaring taftish etilishi. Ularning bir qismi musodara qilinib, Turkiston general-gubernatori ixtiyoriga topshirilishi. Bo‘z yerlarni o‘zlashtirish maqsadda Sirdaryodan kanal chiqarilishi va Mirzacho‘lda N.Romanovning mulki yuzaga kelishi. Amudaryodan Qarshi dashti va Buxoro vohasi yerlarini suv ta’mintonini barqarorlashtirish va ayrim rusiyzabon mulkdorlari mulkini tashkil etish maqsadida ayrim gidrografik, topografik tadqiqotlar o‘tkazilishi va sug‘orish loyihalari tuzilishi.

Buxoro vohasining suv ta’mintonini yaxshilash maqsadida XIX asrning 70- 80-yillarida, avval, Ahmad Donish, so‘ngra rus injiner-irrigatorlari Jijemskiy, M.N.Annenkov va X.V.Gelmanlar tomonidan Amudaryodan Buxoroga suv chiqarish hamda 80–90-yillarda Jijemskiy va N.Petrovskiylar tomonidan esa vohada suv omborlari barpo etish masalalarining ko‘tarilishi. Amudaryodan suv chiqarish masalasi bo‘yicha 1886 yilda M.N.Annenkov va 1912-1914yillarda E.N.Blumberglar, suv omborlari yuzasidan 1899–1900 yillarda N.Petrovskiy va 1913–1915 yillarda A.V.Chapliginlar tomonidan maxsus tekshirishlar o‘tkazilishi, Amu–Buxoro kanalining Kelif va Chorjo‘y variantlari hamda yuqori va o‘rta Zarafshon suv omborlarining dastlabki loyihalari ishlab chiqilishi. Biroq O‘rta Osiyoda kam harj qilib, undan ko‘proq foyda undirib olishga harakat qilgan Rossiya imperiyasining Turkistondagi ma’murlari sug‘orish ishlariga nisbatan tutgan rasmiyatçiligi va loqayd munosabati. Birinchi jahon urushining boshlanishi oqibatida rus irrigatorlarining Amudaryo, Sirdaryo, Murg‘ob va Tajan daryolari havzasida olib borgan tekshirishlari, Zarafshon vodiysida o‘tkazilgan tadqiqotlarining oxiriga yetkazilmaganligi.

Mazkur davrda sug‘orma dehqonchilikning deyarli asosiy qismi puldor boylar va ayrim rus ma’murlari mulklarigi aylanishi. Puldorlar yangi o‘zlashtirilgan yerlarni ijaraga olib, ularda yersiz korandalarning kuchidan foydalanishi.

### **Sovet hokimiyati davrida yer va suvgan bo‘lgan munosabat**

Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatalishi va uning iqtisodiy siyosati. Sovetlarning yer haqidagi qarori. Diniy muassasalar tasarrufidagi mulklar tugatilishi. 1918-1919, 1920-1921 yillarda o‘lkada yer-suv islohotlari. “Qo‘shchi” ittifoqi. Yer ishlari Xalq Komissarligining tuzilishi. O‘lkada hukmron partiya manfaatlarini amalga oshirish uchun markazning paxtachilikni yanada rivojlantirish borasida qabul qilgan qarorlari.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida irrigatsiya ishlari. Dastlabki meliorativ shirkatlar. O‘rta Osiyoning daryo havzalari, Zarafshon vodiysida irrigatsiya xo‘jaliklari. Zarafshon vodiysida gidrouzellar. Qattaqo‘rg‘on, Quyimozor suv omborlari. Amu-Buxoro va Amu-Qorako‘l mashina kanallari qurilishi va Buxoro vohasining suv bilan ta’minlanishi.

Farg‘ona vodiysida, Zarafshon vodisida, Mirzacho‘lda va Amudaryoning quyi oqimlarida sug‘orish ishlarining boshlab yuborilishi. Yangi Farg‘ona, Dehqonobod, Yangiariq, Sovay, Quvonshjorma, Narpay, Uchqo‘rg‘on, Dalvarzin, Bulung‘ur, Qumqo‘rg‘on, Xazorbog‘, Jun, Nazarxon va boshqa kanallar.

Sovet hokimiyatining qulqlashtirish siyosati va uning oqibatlari. Qishloq xo‘jaligini ilmiy jihatdan sotsialistik xo‘jalikka aylantirish borasidagi tadbirlar. Bosh paxta qo‘mitasi. Toshkentda qishloq xo‘jaligi va melioratsiya fakultetlarini tuzilishi. Suv xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligi vazirligi. O‘lkada “kolxozi”-jamoa xo‘jaliklari, “sovxozi”larning ya’ni sho‘roning sovet xo‘jaliklari tashkil etilishi. Paxta monopoliyasining yuzaga kelishi.

Mamlakatda butunittifoq paxtachilik ilmiy tekshirish institutining tuzilishi, uning O‘rta Osiyo filiali. Qishloq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlash siyosati va uning oqibatlari. Markaziy Farg‘ona, Mirzacho‘l, Qarshi Surxon-Sherobod cho‘llarining o‘zlashtirilishi. Suv taqsimoti yaxshilash borasida amaliyot joriy

etilgan katta sug‘orma dehqonchilik maydonlari meliorativ holati yomonlashib, sho‘rlanib ketishi. Irrigatsiya va melioratsiya ishlarini tashkil etish, ekologik muammolarning paydo bo‘lishi. Orol fojeasi.

XX asr 80-yillarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligidagi ahvol. Yerni o‘g‘itlash, kimyoviy moddalar sepilishi va uning aholi salomatligiga ta’siri. “Paxta ishi” qatag‘onlari va uning tub mazmun-mohiyati. 1989-yilning ikkinchi yarmidan O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini yaxshilash borasidagi tadbirlar.

### **Mustaqillik yillarida yer va suv munosabatlari.**

Mustaqillik yillari O‘zbekistonda agrar islohotlarning boshlanishi. Agrar islohotlarning huquqiy asoslarini yaratilishi. Agrar sohada amalga oshirilgan islohotlarning bosqichlari. Respublika qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini shakllantirishning o‘ziga xos yo‘li. Aholining oqilona ish bilan ta’minalash siyosatini amalga oshirilishi. Yangi iqtisodiy munosabatlarni boshlanishi respublikada shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarni mustahkamlash siyosati. Ularning shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sug‘oriladigan yerkarni shaxsiy xo‘jaliklar va bog‘-dala hovli uchastkalarga ajratib berish yo‘li bilan aholini amalda yer bilan ta’minalashdan iborat ekanligi. Davlat tasurrufidan chiqarib, mulkchilikning nodavlat shakliga o‘tkazish jarayonida tashkil etilgan uyushmalar. Ta’mint shirkatlari. Xizmat shirkatlari. Ishlab chiqarish shirkatlari. Qayta ishslash shirkatlari. Saqlash shirkatlari. Sotish shirkatlari. Dehqon xo‘jaliklarining tashkil etilishi, ularning qishloqda mulkdorlar tabaqasining samarali shakli sifatidagi o‘rni. Davlat tasurrufidan chiqarib, mulkchilikning nodavlat shakliga o‘tkazish jarayonida tashkil etilgan uyushmalar. Dehqon va fermer xo‘jaliklariga yer uchastkalariga egalik qilish va foydalanish uchun berilishi. Fermer xo‘jaliklarini agrar islohotlarning asosiy yo‘nalish sifatida shakllantirilishi va faoliyati, ularning xususiy mulk egasi sifatida shakllanishi.

Qishloqda bozor infratuzilmasining shakllantirilishi, yutuqlar va muammolar. Qishloqda uy-joy qurish masalalari. Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish va yetkazib berishda fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan keng foydalanish, agrar sohada ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirishni yaxshilash, fermer

xo‘jaliklariga texnika xizmati ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish, mashina-traktor parklari ishini yaxshilash, fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi mashina-traktor parklari tomonidan mexanizatsiya ishlarini bajarishni takomillashtirish yo‘lidagi chora-tadbirlar.

## **TARIXIY REKONSTRUKSIYA MASALALARI FANI BO‘YICHA** **MAVZULARI, SAVOLLARI, VA ULARNING MAZMUNI**

### **Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad – Tarxiy rekonstruksiya masalalari** predmeti to‘g‘risida talabalarga umumiy tushuncha berish, geologiya, ekologiya, geografiya ta’limotlari, arxeologik manbalari va yodgorliklari, hamda yangi nazariyalarni o‘rganishda ilmiy jihatdan yondashish, magistrantlarda zamonaviy bosqichiga oid bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi – talabalarga Tarxiy rekonstruksiya masalalari** fanining umumiy tavsifi, davrlashtirish va xronologiya, insonning tabiatdagi o‘rni, iqlim o‘zgarishlari jarayoni bilan aloqadorligi bo‘lgan tarixiy hodisalar, arxeologik ma’lumotdan tarixiy xulosalarni chiqarish usullarini, madaniyati va antropologiyasi, an’analari haqida chuqur bilim berishdan iborat.

### **Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**Kirish. Tarxiy rekonstruksiya masalalari tanlov fanining maqsad va vazifalari. Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni.**

Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi. Tarxiy rekonstruksiya tushunchalari. Arxeologiya tushunchasi. Arxeologiyaga oid bilimlarning shakllanishi. Arxeologik ma’lumotlarni o‘rganish, umumlashtirish uslublari. sivilizatsiya va davlatchilikni, ijtimoiy tizimning rekonstruksiyasi. Sivilizatsiya tushunchasi. Arxeologik manbalar.

### **Qadimgi jamiyatlar xo‘jaligini o‘rganish muammolari**

Qadimgi jamiyatlar xo‘jaligini o‘rganishdagi tizimli yondashuv. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq xo‘jaliklarni o‘rganish usullari. Ilk temir davri jamiyatlarini o‘rganish va rekostruksiyasi masalalari. Eng qadimgi jamiyatlarni yashash tarzi, kundalik turmush tarzi, xo‘jaligini o‘rganishda arxeologik usullar. Geologiya, paleozoologiya, paleobotanika, paleoantropologiya fanlarini jalg qilgan holda, kompleks tarzda, tizimli yondashish masalalari.

### **Ayriboshlash va savdo – sotiqning tarixiy rekonstruksiyasi.**

Ilk ayrboshlashning savdo-sotiqqa aylanishi va arxeologik aksi. Oziq-ovqat, hunarmandchilik buyumlari va xomashyoni ayrboshlash va ularni keyingi jamiyatlardagi rivoji. Savdo-sotiqni xalqaro savdoga aylanishi va o‘rganish usullari

### **Arxeologik ma’lumotlar asosida xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilik turlarini o‘rganish uslublari.**

Ishlab-chiqarish bilan bog‘liq faoliyat turlarini paydo bo‘lishi va rivojlanishini arxeologik ma’lumotlar asosida o‘rganish. Ixtisoslik bilan bog‘liq hunarmandchilikni rivojlanishi. Uy kulolchiligi va ixtisoslik bilan bog‘liq kulolchilik. Neolit davriga kelib toshga ishlov berish. Sopolli madaniyati davri.

### **Paleodemografiya va qadimgi iqtisod masalalari**

Demografik jarayonlarning iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni rivojlanishi bilan bog‘liq ekanligi va uni arxeologik aksi. Demografik holatni o‘rganish bo‘yicha olimlarning nuqtai-nazarlari. Shahardagi iqtisodiy rivojlanishni o‘rganishda hunarmandchilik mahallalarining o‘rni. Paleolit.

### **Ijtimoiy taraqqiyot tarixini arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiyasi**

Ijtimoiy taraqqiyot tarixini aniqlashda saqlanib qolgan uy-joylarning ahamiyati. Ilk dehqon jamoalarining bir xonali uylarini yirik jamoa uylariga aylanishi jarayonlari. Jamiyat tabaqalanishining uy-joylar rejalaridagi aksi.

### **Dafn marosimlarini o‘rganish va qadimiylar ijtimoiy – iqtisodiy tarixini umumlashtirish usullari.**

Tosh davri dafn marosimlarini qabrlarda aks etishi. Sopolli madaniyati dafn marosimlarini qadimgi jamiyatlar ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganishdagi ahamiyati. Qabrlardagi dafn marosimining o‘zgarishi aholi tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘liq ekanligi.

### **Ayriboshlash va savdo – sotiqning tarixiy rekonstruksiyasi.**

Ilk ayrboshlashning savdo-sotiqqa aylanishi va arxeologik aksi. Oziq-ovqat, hunarmandchilik buyumlari va xomashyoni ayrboshlash va ularni keyingi jamiyatlardagi rivoji. Savdo-sotiqni xalqaro savdoga aylanishi va o‘rganish usullari.

### **Hayot sharoiti, inson turmush tarzi va madaniyatini tiklash.**

Ibtidoiy davr odamlarini hayot tarzi va madaniyatlarini tiklash. Ilk dehqon jamoalari turmush tarzining vujudga kelishi ularning madaniyatlarini tiklash. Qadimgi migratsiyalarning arxeologik manbalardagi aksi. Aholining ko‘payishi natijasida yangi o‘zlashtirilmagan erlarni egallash uchun amalga oshirilgan migratsiya. Iqtisodiy sabablardan kelib chiqqan ko‘chish (hosildor erlar, suv manbalari va hom ashyo konlarini o‘zlashtirish zaruriyati). Urushlar va talontarojlar sababli ko‘chish.

### **Ilk shaharlар va davlatlarning arxeologik belgilari**

Ilk shaharlarning arxeologik belgilari. Shahar-davlatlar va ularning arxeologik belgilari. Antik va o‘rta asr shaharlari va davlatchiligining arxeologik manbalarda aks etishi.

## **PALEOEKOLOGIYA VA SIVILIZATSIYA DINAMIKASI**

### **FANI BO‘YICHA MAVZULARI, SAVOLLARI, VA ULARNING**

#### **MAZMUNI**

#### **Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi predmeti to‘g‘risida talabalarga umumiy tushuncha berish, geologiya, ekologiya, geografiya ta’limotlari, arxeologik manbalari va yodgorliklari, hamda yangi

nazariyalarni o‘rganishda ilmiy jihatdan yondashish, talabalarda zamonaviy bosqichiga oid bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – talabalarga Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi fanining umumiy tavsifi, davrlashtirish va xronologiya, insonning tabiatdagi o‘rni, iqlim o‘zgarishlari jarayoni bilan aloqadorligi bo‘lgan tarixiy hodisalar, sivilizatsiya dinamikasi haqida chuqur bilim berishdan iborat.

### **Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

#### **Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

##### **Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbliyi.**

Ekologiya va sivilizatsiya tushunchalari. Ekologiya tushunchasi. Ekologiyaga oid bilimlarning shakllanishi. Inson qadimdan o‘zini hayvonot va o‘simplik dunyosi bilan bog‘liqligini tushunib etgan. Bu tushuncha ilk diniy e’tiqod va urf-odatlar bilan bog‘liq hodisalarda tabiatning inson tomonidan o‘zlashtirila boshlanganligida shakllanadi. Madaniyat taraqqiyotining ekologik omillari. Sivilizatsiya tushunchasi.

#### **Inson ekologiyasi.**

Insonning tabiatda o‘rni haqidagi bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi. Inson va ekologiya rivojlanishining tabiiy shart - sharoitlari. Yer shari tabiiy boyliklarining cheklanganligini tushunib etish. Ekologik muammolar. Ekologik falsafa va mantiqning shakllanishi. Ekologiyaga oid va insonning tabiatda o‘rni haqidagi bilimlarning rivojlanishi.

#### **Iqlim o‘zgarishining astronomik va geofizik omillari Atmosferada quyosh nurlari faolligining roli.**

Muzlik davrida quyosh nurlari faolligi va iqlimdagi o‘zgarishlarni kuzatish. Yer shari orbitasini protsessiyasini o‘lchash. Yer shari litosfera, gidrosfera va atmosfera evolyusiyasida massaning roli. Planeta yadrosi geotermal issiqligi roli.

Yer va Oyning aylanish tezligi, gravitatsion va magnit maydonlari. Tektonika va vulkanizm.

### **Endogen (ichki) geologik jarayonlarining ekologik sharoitiga ta'siri.**

Tabiatning rivojlanish ritmi. Yer qobig'i plitasi va kontenentlar dreyfi. Tektonik jarayonlar, tog'larning emirilishi va orogenezi. Tirik materianing tezlashish jarayonlari. Markaziy Osiyoda nam harorati va muzlik.

### **Yerning geologik o'tmishidagi iqlimi.**

Pleystotsen davri iqlimi. Inson va atrof muhit munosabatlari. Yerda hayotning vujudga kelishi. Paleozoy, Mezozoy, Kaynozoy. Geologik muzlik davrlari. Muzlik izlari. Yevropaning muzlash davridagi Alp tog'lari shkalasi. Quyi va o'rta kengliklar iqlimi. Yer, landshaft va muzlash davri harorati. Markaziy Osiyo relefining shakllanishi. Markaziy Osiyo gidrografiysi. Pleystotsen davrida Orol-Kaspiy hududi iqlimi. Paleolit.

### **Golotsen davri iqlimi va tabiiy sharoiti.**

Ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar va sivilizatsiyalarning vujudga kelishi. Ilk golotsen davri iqlimi. Golotsen davri iqlim o'zgarishlari davrlashtirishi. Yevropa, Sibir va Markaziy Osiyoda golotsen iqlimi. Ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar va sivilizatsiyalarning vujudga kelishi. O'rta Osyoning neolit, bronza va ilk temir davri arxeologik davrida insoniyat madaniyatining rivojlanishi.

**Milodiy I-II ming yilliklar iqlimi va ekologik muammolari.** Yevropada III-IV asrlarda iqlimi bo'hronlar va xalqlarning buyuk ko'chishi. VII-VIII va IX-X asrlardagi iqlim. O'rta asrlar davrida iqlimdagi assosiya o'zgarishlar. Iqlim o'zgarishi va uning xalqlarning migratsiyasi va iqtisodiga ta'siri. Dengiz sathining o'zgarishi. Yevropa, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqdagi iqlim o'zgarishlari.

### **Qadimgi dunyoning ekologik muammolari.**

Qadimgi zamonlarda vulqon otilishi, zilzila, suv bosishi, qurg‘oqchilikning sivilizatsiyalar rivojiga ta’siri. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining tabiiy muhitga ta’siri. Irrigatsiya-sun’iy sug‘orish tizimining rivojlanishi. Suv manbalari va hosildor yerlarni keng miqyosda o‘zlashtirilishi. Yerlarni sho‘rlanishi masalasi. Urush va talon-tarajliklarning atrof-muhitga salbiy ta’siri. Qadimgi yozma manbalarda atrof-muhitni asrab-avaylashga da’vat. Ekologik omillar va tarixiy jarayonlar o‘zgarishining madaniyat taraqqiyotiga ta’siri.

### **Ekologik omillar va tarixiy jarayonlar o‘zgarishining madaniyat taraqqiyotiga ta’siri.**

Migratsiyalar. Tabiiy ofatlar, global kataklizmlar, iqlimning keskin o‘zgarishi sababli majburiy migratsiyalar. Migratsiyaning boshqa sabablari (demografik, iqtisodiy, siyosiy). Aholining ko‘payishi natijasida yangi o‘zlashtirilmagan yerlarni egallash uchun amalga oshirilgan migratsiya. Iqtisodiy sabablardan kelib chiqqan ko‘chish (hosildor erlar, suv manbalari va xomashyo konlarini o‘zlashtirish zaruriyati). Urushlar va talon-tarajlar sababli ko‘chish.

### **Etnik geografiyasi, etnos va hudud, xo‘jalik-madaniy tiplar shakllanishining ekologik omillari.**

Etnik geografiyasi (etnogeografiya) nima? Etnos va hudud. Qabila va elatlarning hududiy joylashuvi xususiyatlari va tabiiy muhit. Hududiy joylashuvning qonuniyatları, etnik chegaralar. Madaniy landshaft. Xo‘jalik (iqtisodiy) – madaniy turlar shakllanishining ekologik omillari. Etnografik xaritalardagi o‘tmish va zamonaviy xalqlarning hududiy joylashuvi.

## **O‘RTA ASRLAR MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI**

### **FANI BO‘YICHA MAVZULARI, SAVOLLARI, VA ULARNING MAZMUNI**

## **Kirish. O‘rta Osiyoda o‘rta asrlar davri manbashunosligi va tarixshunosligi fanining predmeti, maqsad va vazifalari**

O‘rta Osiyoda o‘rta asrlar manbashunosligi fanining predmeti va vazifalari. Tarixiy manbashunoslik, uning tarix fanlari tizimidagi o‘rnii va vazifalari. Tarixiy manbashunoslik tarkibi: nazariy manbashunoslik, xususiy manbashunoslik, manbashunoslik amaliyoti. Manbashunoslikning fan sifatida shakllanishi. Yetakchi-tarixchi manbashunoslar. O‘rta Osiyo tarixi manbashunosligining vazifalari. Manbashunoslikning yordamchi tarix fanlari bilan o‘zaro aloqalari.

### **O‘rta Osiyoning ilk o‘rta asrlar tarixiga oid yozma manbalar (V – VIII asrlar).**

Xitoy solmonlari ilk o‘rta asrlar tarixiga oid muhim manba sifatida. “Xou-Xan-shu” (“Keyingi Xan sulolasi tarixi”), “Bey-shu” (“Shimoliy sulolalar tarixi”), “Suy-shu” (“Suy xonadoni tarixi”) yilnomalarida keltirilgan O‘rta Osiyo tarixiga oid ma’lumotlar. Qadimgi turkiy manbalar. Turk-runik bitiklari, ularning geografiyasi. To‘nyuhuq bitigi, Kultegin bitigi, Bilga xoqon va Ongin bitigi.

So‘g‘d hujjatlari o‘rta asrlar O‘rta Osiyo tarixiga oid muhim manba. Mug‘ qa’lasidan topilgan hujjatlar. Afrosiyob, Sharqiylar Turkistondan topilgan so‘g‘d hujjatlarning manbaviy ahamiyati.

### **O‘rta Osiyoning IX – XIV asrlar o‘rtalari tarixiga oid yozma manbalar.**

O‘rta Osiyo tarixi aks etgan IX – XV asrlarda yozilgan arab tilidagi yozma manbalar: al-Madoiniy “Axbor al-xulafo”, al-Yakubiy “Kitob al-buldon”, Balazuriy “Kitob futuh al-buldon”, Tabariy “Tarix ar-rusul va-l-muluk”, Ibn Fadlan “Risola”, al-Mas’udiy “Muruj az-zahab”, Utbiy “Tarixi Yaminiy”, Abu Abdulloh al-Xorazmiy “Mafotih al-ulum”, Abu Rayxon Beruniy “Osor al-boqiya”, Mahmud Koshqariy “Devonu lug’at at-turk”, Sam’oniy “Kitob al-ansob”, Inb al-Asir “Al-Komil fi-t-tarix”, Yog‘ut Hamaviy “Mu’jam al-buldon”, Shihobuddin Muhammad Nasaviy “Siyrat as-sulton Jaloliddin Menkburni”, Jamol qarshi “Mulhaqat as-surog”.

O‘rta Osiyo IX – XV asrlar tarixiga oid forsiy yozma manbalar: Narshaxiy “Buxoro tarixi”, “Hudud ul-olam”, Nizomulmulk “Siyosatnoma”, Nizomi Aruzi

Samarqandiy “Chahor maqola”, Gardiziy “Zayn ul-ahbor”, Abdulfayz Bayhaqiy “Tarixiy Ma’sudiy”, Avfiy “Javomi’ al-hikoyat”, Juvayniy “Tarixi jahonkushoy”, Rashidaddin “Jome’ at-tavorix”, Hamdaloh Qazviniy “Tarixi guzida”.

Temuriylar sultanati tarixiga oid tarixiy manbalar: Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”, Muiniddin Natanziy “Muntaxab at-tavorix”, Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”, Abdurazzoq Samarqandiy “Matla as-sa’dayn”, Mirxond “Ravzat as-safo”. Ahmad ibn Arabshohning arab tilidagi “Ajoyib al maqdur fi navoyib Taymur” asari. Temur va Temuriylar davri tarixiga oid yevropa tillaridagi yozma manbalar.

### **Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid yozma manbalar (XIV asr o‘rtalari – XV asr)**

Temuriylar sultanati tarixiga oid tarixiy manbalar: G‘iyosiddin Ali “Ro‘znomayi g‘azavoti Hindiston”, Rui Gonsales de Klavixo “Samarqandga, Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar)”, Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”, Muiniddin Natanziy “Muntaxab at-tavorix”, Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”, Abdurazzoq Samarqandiy “Matla as-sa’dayn”, Mirxond “Ravzat as-safo”, Fasix Xavafi “Mudjmal-I Fasixi”, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”, Muhammad Haydar Mirzo “Tarixi Rashidiy”,

Ahmad ibn Arabshohning arab tilidagi “Ajoyib al maqdur fi navoyib Taymur” asari. Temur va Temuriylar davri tarixiga oid yevropa tillaridagi yozma manbalar.

### **O‘rta Osiyoning xonliklar davri tarixiga oid Sharq manbalari (XVI asr – XIX asrning birinchi yarmi)**

